



**SIRDARYO VILOYATI ICHKI ISHLAR BOSHQARMASI BOSHLIG'INING
FARMOYISHI**

**Sirdaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi huzuridagi jamoatchilik kengashi
tarkibini tasdiqlash to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Ichki ishlar organlarini xalqchil professional tuzilmaga aylantirish va aholi bilan yanada yaqin hamkorlikda ishlashga yo‘naltirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 20-yanvardagi PQ-10-son qarori, “Fuqarolik jamiyatni institutlarini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2024-yil 26-avgustdagи PF-124-son Farmoni, shuningdek, Ichki ishlar vazirining “Ichki ishlar vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari huzuridagi jamoatchilik kengashlari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2023-yil 11-martdagи 122-son buyrug‘iga muvofiq, ichki ishlar organlari faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini tizimli ravishda amalga oshirish, jamoatchilik bilan hamjihatlik ruhida ishlashni ta‘minlash va Sirdaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi huzuridagi jamoatchilik asosida doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblangan Jamoatchilik kengashining yangi tarkibini tasdiqlash hamda Ichki ishlar vazirining 2024-yil 24-oktyabr kunidagi 349-sonli farmoyishi ijrosini ta‘minlash maqsadida, **buyuraman:**

1. Sirdaryo viloyati ichki ishlar organlarida jamoatchilik kengashi faoliyati Ichki ishlar vazirligining 2023-yil 11-martdagи 122-son buyrug‘i hamda Boshqarma boshlig‘ining 2023-yil 27-martdagи 49-sonli buyrug‘i talablariga asosan yo‘lga qo‘yilsin.

2. Sirdaryo viloyati IIB huzuridagi jamoatchilik kengashining yangi (keyingi o‘rinlarda – Kengash) tarkibi ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Boshqarma Axborot xizmati (D.M. Shamsiddinov) va Ma’naviy-ma’rifiy ishlar va kadrlar bilan ta‘minlash xizmati (Q.X. Shermatov) bilan hamkorlikda:

jamoatchilik kengashi faoliyatini ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali keng jamoatchilikka doimiy ravishda yetkazib borilishini ta‘minlasin;

jamoatchilik kengashi oldiga qo‘yilgan asosiy vazifa va funksiyalardan kelib chiqqan holda belgilangan reja va tadbirlarning tashkillashtirilishini ta‘minlasin;

ichki ishlar organlari faoliyati ustidan ta’sirchan jamoatchilik nazorati mexanizmlarini joriy qilish, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining

boshqa institutlari bilan yaqindan hamkorlikda olib borilayotgan ishlar doimiy ravishda ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarda yoritib borilsin;

har yillik faoliyat yakunlariga asosan Kengashning faol va tashabbuskor a'zolarini rag'batlantirish bo'yicha takliflar kiritish amaliyoti yo'lga qo'yilsin.

4. Boshqarma Moliya va moddiy-texnika ta'minoti boshqarmasi boshlig'i (D.A.Vaxabov) Boshqarma huzuridagi Jamoatchilik kengashining faol a'zolarini budgetdan tashqari mablag'lar hisobidan moddiy rag'batlantirib borish choralarini ko'rsin.

5. Mazkur buyruq ijrosini ta'minlash barcha shahar-tuman IIB, mustaqil boshqarma boshliqlariga va Axborot xizmati boshlig'i, podpolkovnik D.M.Shamsiddinov zimmasiga, umumiy nazorat Boshqarma boshlig'i o'rribbosari, polkovnik Q.X. Shermatov zimmasiga yuklatilsin.

**Boshqarma boshlig'i
polkovnik**


S.B. Djabarov

Guliston shahri,
2024-yil "11" 12
143-son

Sirdaryo viloyati Ichki ishlar boshqarmasi
boshlig‘ining 2024-yil “ 11 ” dekabrdagi
“ 143 ”-son farmoyishiga
Ilova

**Sirdaryo viloyati ichki ishlar boshqarmasi huzuridagi jamoatchilik kengashi
T A R K I B I**

Kengash raisi

R.J. Maxmudov

- Guliston Davlat universiteti professori, viloyat Kengashi deputati, Yozuvchilar uyushmasi a’zosi

Kengash raisining o‘rinbosari

G‘.X. Djurayev

- Boshqarma MMI va KBTX boshlig‘ining maslahatchisi Faxriylar kengashi raisi, iste’fodagi polkovnik

Kengash a’zolari

O‘.K. Boltabayev

- Boshqarma boshlig‘ining maslahatchisi, iste’fodagi podpolkovnik

E.E. Ergashev

- Boshqarma MMI va KBTX boshlig‘i o‘rinbosari, Ma’naviy-ma’rifiy ishlar bo‘limi boshlig‘i, podpolkovnik

A.A. Esonov

- O‘zbekiston Respublikasi Prezident Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi Sirdaryo viloyati boshqarmasi boshlig‘i

D.R. Mirzaliyev

- Sirdaryo viloyati Musiqali drama teatri direktori

M.Sh. Hayitov

- O‘zbekiston Respublikasi Ma’naviyat va ma’rifat markazi Sirdaryo viloyati bo‘limi rahbari

D.A. Umurzakova

- Sirdaryo viloyati Adliya boshqarmasi huquqiy axborot sho‘basi bosh maslahatchisi

I.O. Aribjanov

- “Gulistonliklar” kanali admini, ijtimoiy tarmoq faoli (bloger)

B.J. Xidiraliyeva

- “Hududgaz” Sirdaryo gaz ta’minoti filiali matbuot kotibi, “Yangilanayotgan Sirdaryo” kanali admini

S.U.Axmatqulova

- “Mening yurtim (MY5) telekanali Sirdaryo viloyati bo‘yicha muxbiri”

- B.E. Usmanov** – O’zbekiston davlat muassasalari va jamoat xizmati xodimlari kasaba uyushmasi Sirdaryo viloyati Kengashi raisi
- X.X. Axmadaliyev** – Sirdaryo viloyati Teleradiokompaniyasi radio bosh muharriri
- D.R. Misiraliyeva** – Sirdaryo viloyati Teleradiokompaniyasi muxbiri
- M.A. Umarov** – “Guliston xabarlari” kanali admini, ijtimoiy tarmoq faoli (bloger)
- O.S. Nomozov** – “Sirdaryo sadosi” kanali admini, ijtimoiy tarmoq faoli (bloger)
- A.A. Mustafakulov** – “Post”da gazetasining Sirdaryo viloyati bo‘yicha muxbiri
- O.B. Rahmonov** – Boshqarma Jamoat xavfsizligi xizmati bo‘linmalari yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasi bo‘linmalari axborot guruhi katta mutaxassis, leytenant
- Kengash kotibi**
- D.M. Shamsiddinov** – Boshqarma Axborot xizmati boshlig‘i–ichki ishlar boshqarmasi boshlig‘ining matbuot kotibi, podpolkovnik

Izoh: Kengash a’zolari boshqa lavozimga o’tgan taqdirda, ularning o‘rniga ushbu lavozimga yangi tayinlangan yoki zimmasiga tegishli funksiyalarни bajarish yuklatilgan xodimlar kiritiladi.